

## O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI: O'ZARO MANFATLI VA ISTIQBOLLI TASHQI SIYOSAT MASALALARI BO'YICHA YONDASHUV

**Xakimov Biloliddin Ahroldin o'g'li**

Andijon davlat universiteti

(Tarix fakultetining 302-bosqich talabasi)

**Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li**

(Tarix fakulteti o'qituvchisi)

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan do'stona aloqalari va rivojlanish strategiyalari va istiqbollari masalalari bo'yicha yondashilgan.

**Kalit so'zlar:** Jahon mamlakatlari bilan aloqalar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Bollalar jamg'armasi, Yevropada Havsizlik va Hamkorlik Tashkiloti

**Аннотация:** В статье рассматриваются дружественные отношения Республики Узбекистан со странами мира, стратегии и перспективы развития

**Ключевые слова:** отношения со странами мира, ООН, ЮНЕСКО, Всемирная организация здравоохранения, МЯЧ Фонд, Организация Бедность и сотрудничество в Европе.

**Abstract:** The article deals with the friendly relations of the Republic of Uzbekistan with the countries of the world and development strategies and prospects.

**Key words:** Relations with the countries of the world, United Nations, UNESCO, World Health Organization, Children Foundation, Organization for Poverty and Cooperation in Europe.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgan dastlabki kunlaridanoq jahon hamjamiyati muhim o'rin egalashga harakat qila boshladi. Bunday harakatlarning debochasi sifatida 1992-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi bor xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyekt sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoliciga qabul qilindi. Bunday tashabbusning asosiy sababi O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rini egalashidir. Va bu maqsadlariga mustaqil O'zbekistonimiz bosqichma bosqich harakatlar orqaliy erishib kelmoqda O'zbekiston BMT ga a'zo bo'lgandan so'ng 1993-yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ta'sis etilib, ish boshladi. Bundan tashqari O'zbekiston BMT ning qator tashkilotlari bilan munosib aloqalar olib bormoqda xususan: BTMning O'zbekistondagi vakolatxonasi respublikada BTMning taraqqiyot Dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha Dastur, Bolalar jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq

bo'ldi. O'zbekiston 1992-yil fevral oyida dunyoda tanqislikni mustaxkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot — Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (EXHT) a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnika va madaniy tashkilotlar Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi Evropada tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, xalqaro pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash. tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Osiyo va Tinch okean xavzasi bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Bojxonalar hamkorligi Kengashi, BTMning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Qo'mitasi (YuNESKO) va boshqa tashkilotlar a'zosidir. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsablari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z xududini qurol yarog'lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va taziyoqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat — deb qayd qilindi. Prezident I. Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida mamlakatimizning mustaqil tashqi siyosatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risidagi Chet el investitsiyalari to'g'risidagi, investorlar va investitsiyalarga kafolat berish tug'risidagi, Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi xujjatlarda o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48 (1993) va 50-yubiley (1995 sessiyalaridagi nutqlarida mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining bosh yo'nalishlari belgilab beriladi. O'zbekiston hukumati respublika tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saklashga sodiqlik: davlatning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini xurmat qilish: boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik: nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish: kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik: ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi: davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonlik va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, xalq do'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish: tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik: davlatlararo alokalarda teng huquqning va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi: tashqi aloqalarni ham ikki tamonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik kabi o'z oldiga qo'ygan dastur orqalik bugungi kunga qadar harakat qilib kelmoqda. Shu o'rinda yurt boshimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan to hozirgi kunga qadar olib borilgan ishlarni davom

etirgan holda 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining beshinchi ustuvor yo‘nalishi “Xavzilik,millarlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash,chuqur o‘ylangan,o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish”ga yo‘naltirilgan bo‘lib undan ko‘zlangan maqsad vatanimiz mustaqiligini va suverenitetini mustahkamlashdan iboratdir.Harakatlar strategiyasi ushbu ustuvor yo‘nalishni amalga oshirishda quydagi vazifalarga alohida e‘tibor qaratildi:1)davlat mustaqiligi va suverenitetini mustahkamlash,mamlakatning halqaro munosabatlar to‘la huquqli sub‘ekti sifatida o‘rni va ro‘lini kuchaytirish,rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish,O‘zbekiston tevaragida xavsizlik,barqarorlik va ahil qo‘shnichilik mintaqasini vujudga keltirish;2)O‘zbekiston Respublikasining halqaro nufuzini mustahkamlash,jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish;3)O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faolyati normativ-huquqiy bazasini handa xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;4)davlat chegarasining demilitatsiya va demakratsiya masalarini hal etish.Ushbu vazifalarni bajarishga shaxsan Prezidentni o‘zi boshchilik qilib kelmoqda.Bunga 2017-2021 yillarda Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston kabi davlatlarga uyishtirgan davlat tashrifi ham tasdiqlab turibti.O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash,jaxon hamjamiyatiga mamlakatda olib borayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish maqsadida 2017-yil 19-sentabrda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti ishtirok etib.Unda Prezidentimiz tomonidan so‘zlangan ma‘ruza O‘zbekistonni dunyo mamlakatlari orasida ko‘hna va navqiron davlat sifatida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega ekanligini isbotladi.Bundan tashqari yurt boshimizning **MINTAQALARARO O‘ZARO BOG‘LIQLIK LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH TASHABBUSINI JAHON XAMJAMIYATI BIR OVOZDAN MA‘QULLADI 2021-yilning 11 iyul kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustaxkamlash bo‘yicha maxsus rezolyutsiyani bir ovozdan ma‘qulladi. E‘tiborlisi, rezolyutsiya dunyoning turli qit‘alarida joylashgan 40 ta mamlakat xammuallifligida qabul qilindi.Rezolyutsiyaning tasdiqlanishi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Toshkent shaxrida 2021 yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Taxdidlar va imkoniyatlar” mavzuidagi xalqaro konferensiyada ilgari surilgan tashabbusning amaliy natijasi bo‘ldi.Xalqaro ekspert doiralari vakillari, o‘z navbatida, mazkur muxim xujjatning BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan qabul qilingani ikki mintaqqa o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustaxkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni**

*rivojlantirish va o‘zaro investitsiyalar hajmini oshirish uchun qulay shart- sharoitlar yaratishini ta’kidlamoqda.*

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining bugungi olib borayotgan siyosati orqali butun dunyo ham jamiyatlari orasida o‘zining so‘ziga, o‘zining mukammal o‘rniga va bir so‘z bilan aytganda o‘zining keng qamrovlik mukammal siyosatiga ega bo‘lib kelmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Nuriddinov E. O‘zbekiston: eng yangi tarix. Asr, 2010. - 576 b
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. Manba [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m8150>
4. Vatanimiz mustaqilligi-biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 31-avgustda so‘zlagan maruza. [www.president.uz](http://www.president.uz)

